

INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI

Xidirova Barchinoy Ixomovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası
PhD., katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlik sanoat korxonalarini uchun strategik omilga aylanmoqda. Texnologik taraqqiyot, ayniqsa sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, avtomatlashtirish va IoT kabi zamonaviy vositalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi orqali korxonalar nafaqat operatsion samaradorlikka, balki strategik afzallikka ham erisha boshladi. Mazkur maqolada intellektual boshqaruv tizimlarining sanoat korxonalarida qanday joriy etilishi, ular orqali qanday raqobat ustunligi yaratilishi va bu jarayonda duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi. O‘zbekiston sanoati misolida amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqilib, ilg‘or xorijiy tajriba bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: intellektual boshqaruv tizimlari, sun’iy intellekt, ERP, MES, SCADA, IoT, raqamli transformatsiya, sanoat 4.0, raqobatbardoshlik, aqlli ishlab chiqarish, texnologik integratsiya, O‘zbekiston sanoati.

Аннотация

В условиях современной глобальной экономики конкурентоспособность становится стратегическим фактором для промышленных предприятий. Внедрение передовых технологий, таких как искусственный интеллект, анализ больших данных, автоматизация и Интернет вещей, позволяет компаниям достигать не только операционной эффективности, но и стратегических преимуществ. В данной статье рассматриваются вопросы внедрения интеллектуальных систем управления в промышленности, их роль в формировании конкурентных преимуществ и анализируются существующие проблемы в этом процессе. Особое внимание уделено практическим подходам на примере промышленности Узбекистана, а также проведено сопоставление с передовым международным опытом.

Ключевые слова: интеллектуальные системы управления, искусственный интеллект, ERP, MES, SCADA, IoT, цифровая трансформация, промышленность 4.0, конкурентоспособность, умное производство, технологическая интеграция, промышленность Узбекистана.

Abstract

In today’s global economic landscape, competitiveness has become a strategic factor for industrial enterprises. The integration of advanced technologies such as Artificial Intelligence, Big Data analytics, automation, and the Internet of Things into manufacturing processes enables companies to achieve not only operational efficiency but also strategic advantages. This paper examines the implementation of intelligent management systems in industrial enterprises, explores how they contribute to competitive advantage, and analyzes the challenges faced during this transition.

Practical approaches are reviewed using the case of Uzbekistan's industrial sector, with comparisons to leading international practices.

Keywords: intelligent management systems, Artificial Intelligence, ERP, MES, SCADA, IoT, digital transformation, Industry 4.0, competitiveness, smart manufacturing, technological integration, Uzbekistan's industry.

KIRISH

Sanoat tarmoqlarida texnologik yuksalish, ayniqsa, sun'iy intellekt (SI), mashinali o'rganish, Internet of Things (IoT) va boshqa raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Ushbu transformatsiya natijasida paydo bo'lgan intellektual boshqaruv tizimlari zamonaviy sanoat korxonalarini uchun raqobat ustunligini ta'minlashda muhim vositaga aylangan. Bu tizimlar real vaqtda axborot almashinuvi, avtomatik qaror qabul qilish, resurslarni optimal taqsimlash va texnik xizmatni bashoratlash imkoniyatlarini yaratmoqda [1].

Raqamli komponentlar, bulutli aloqa, va sun'iy intellektga ega "aqlli, bog'langan mahsulotlar" orqali korxonalar mahsulotning butun hayotiy siklini dizayn, ishlab chiqarish, ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish bosqichlarini raqamlashtirib, yanada moslashuvchan va samarador tizimlar yaratmoqda. Ayniqsa, ERP (Enterprise Resource Planning), MES (Manufacturing Execution Systems), SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) va IoT tizimlarining o'zaro integratsiyasi ishlab chiqarishni boshqarishda muhim rol o'ynamoqda[2].

Sun'iy intellekt algoritmlari, xususan, sanoatda avvalgi ishlash ma'lumotlariga asoslanib xatoliklarni bashorat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqtda optimallashtirish, sifatni avtomatik nazorat qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bu esa sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham sezilarli darajada oshirishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada intellektual boshqaruv tizimlarining nazariy asoslari, texnologik arxitekturasi, amaliy qo'llanilishi va ularning sanoat korxonalaridagi raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar va O'zbekiston sanoat tarmoqlarida mavjud bo'lgan sharoitlar kontekstida ularning imkoniyatlari va muammoli jihatlari yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida sun'iy intellekt, mashinali o'rganish, va raqamli boshqaruv tizimlari tobora muhim rol o'ynayapti. So'nggi yillarda ilmiy manbalarda bu tizimlarning o'zaro integratsiyasi va amaliy qo'llanilishi chuqur o'rganilgan bo'lib, ularning ishlab chiqarish samaradorligi, moslashuvchanlik va texnik xizmat ko'rsatishdagi samarasi alohida ta'kidlangan.

Shabbir va Anwer o'z tadqiqotlarida sun'iy intellektni "Industry 4.0" inqilobining markaziy elementi sifatida ko'rsatadi. Ular sun'iy intellektning kiber-fizik tizimlar bilan integratsiyasi orqali energiya tejamkorlik, aniqlik, va resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlariga urg'u beradi. Ayniqsa, uskuna ishlashini tahlil qilib, avariyaning oldindan aniqlash, sanoat xarajatlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi[1].

Porter va Heppelmann esa “Aqlli, bog‘langan mahsulotlar” konsepsiyasini ilgari surib, aqlli ishlab chiqarishni ilg‘or texnologiyalarga asoslangan, o‘z-o‘zini nazorat qila oladigan va o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan tizim sifatida izohlaydi. Ular ishlab chiqargan arxitektura modelida uch asosiy komponent ajratiladi: fizik, raqamli, va aloqa tizimlari. Ushbu komponentlar orqali mahsulotlar o‘z holatini monitoring qiladi, qarorlarni avtomatik ravishda qabul qiladi va boshqa tizimlar bilan to‘liq integratsiyalanadi[3]

SI asosidagi ishlab chiqarishni avtomatlashtirish masalasi Yang va hammualliflari tomonidan yoritilgan. Ularning fikricha, ERP va MES tizimlarining sun‘iy intellekt bilan birgalikdagi ishlashi ishlab chiqarish jarayonlarini nafaqat tezlashtiradi, balki ularni real vaqtda optimallashtirish imkonini ham beradi. Ushbu integratsiya orqali korxonalar ma‘lumotlarga asoslangan avtomatik qaror qabul qilish mexanizmini joriy etishi mumkin[2].

SCADA va IoT tizimlarining sun‘iy intellekt bilan integratsiyasi El-Khatib va boshqalar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular ishlab chiqarishdagi uskuna holatini monitoring qilish orqali texnik nosozliklarni oldindan aniqlash tizimlarini ishlab chiqadi. Bu esa korxonalariga avariylarning oldini olish va ish vaqtini maksimal darajada ushlab qolish imkonini beradi [4].

MES tizimlari asosida ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishga Singh va hamkorlari e‘tibor qaratgan. Ularning tadqiqotlarida SI yordamida ishlab chiqarish liniyalarining yuklanishi, sifat darajasi va vaqtni boshqarish imkoniyatlari tahlil qilingan bo‘lib, bu tizimlar real vaqtda monitoring va optimallashtirishga xizmat qiladi [5].

SI va IoT asosidagi raqamli egizaklar (digital twins) haqida Raza va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda, sanoat obyektlarining virtual modellari orqali ularni nazorat qilish va sinovdan o‘tkazish imkoniyati ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa ERP va SCADA tizimlari bilan integratsiyada ishlaydigan ilg‘or modellashtirish tizimlarini yaratishga yo‘l ochadi [6].

Aqlli zavodlar arxitekturasi bo‘yicha Fernandez va Lopez besh bosqichli modelni taklif qilishadi: ma‘lumot yig‘ish, bulutli saqlash, AI orqali tahlil, qaror qabul qilish, bajarish. Bu model ishlab chiqarishning har bir bosqichida intellektual algoritmlarning real vaqtda ishtirokini ta‘minlaydi [7].

Sifat nazoratini avtomatlashtirishda SCADA tizimi bilan bog‘langan kompyuterli ko‘rish algoritmlari ham muhim ahamiyatga ega. Zhao va hamkorlari ushbu texnologiyalar yordamida vizual nuqsonlarni aniqlash va mahsulot sifatini oshirish yo‘llarini tahlil qilgan [8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda intellektual boshqaruv tizimlarining (ERP, MES, SCADA, IoT, AI) sanoat korxonalarida joriy etilishi orqali raqobatbardoshlikka ta‘siri nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma‘lumotlari asosiy parametrning o‘zgarish tendensiyalari baholandi. Sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarning sanoat boshqaruvidagi nazariy asoslari, ishlab chiqarish

tizimlaridagi transformatsion model va raqamli integratsiyaning evolyutsion bosqichlari tahlil qilindi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, trend tahlil, SWOT-tahlil, ekspert baholash, indeks usuli va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Intellektual boshqaruv tizimlarining sanoat korxonalarida joriy etilishi ularning texnologik imkoniyatlari, infratuzilma holati, raqamli tayyorgarligi va inson resurslari sifatiga bevosita bogʻliq.

Zamonaviy sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekt imkoniyatlarining kengayishi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bunday muhitda SI, ERP, MES, SCADA va IoT kabi tizimlarning oʻzaro integratsiyasi ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardoshlikni taʼminlovchi muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Har bir tizimning funksional vazifasi quyidagicha izohlanadi:

ERP tizimi — korxonaning strategik darajadagi boshqaruvida, ayniqsa moliyaviy va moddiy resurslarni rejalashtirishda asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi. ERP korxonaga boʻlimlari oʻrtasida maʼlumot oqimini muvofiqlashtiradi va boshqaruv shaffofligini oshiradi.

MES tizimi — ishlab chiqarish liniyalarida real vaqtda monitoring olib borish, buyurtma bajarilishi, mahsulot sifati, operatsion muddatlar va ishlab chiqarish jadvalini nazorat qilishda ishlatiladi. Bu tizimlar SI algoritmlari bilan integratsiyalashganda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

SCADA tizimi — SCADA orqali sanoat obyektlarida uskunalarning ish holati, sensorlar orqali uzatilgan maʼlumotlar, bosim, harorat va energiya sarfi kabi koʻrsatkichlar vizual tarzda kuzatilib, real vaqtda boshqariladi. Sunʼiy intellekt bilan bogʻlangan holatda SCADA tizimi tahlil vositaga aylanadi.

IoT texnologiyalari — IoT yordamida sanoat uskunalari oʻzaro bogʻlanadi va doimiy ravishda maʼlumot uzatib boradi. Ushbu maʼlumotlar SI algoritmlari tomonidan qayta ishlanib, qaror qabul qilish uchun asos boʻladi. Shuningdek, uzluksiz monitoring orqali nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyati paydo boʻladi.

Bu tizimlarning uygʻunlashuvi natijasida raqamli egizaklar texnologiyasi ham joriy etilishi mumkin.

Oʻzbekiston sanoatida ushbu texnologiyalarning joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan boʻlsa-da, bu jarayonda mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda tizimli cheklovlar ham kuzatilmoqda. Shu bois, ilgʻor xorijiy tajribani tahlil qilish va milliy sharoitga mos amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sanaladi.

Oʻzbekiston sanoatining raqamlashtirish yoʻnalishidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch bu davlat tomonidan ishlab chiqilgan “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasidir. Strategiya doirasida energetika, mashinasozlik, avtomobilsozlik va kimyo sanoatida ERP va qisman SCADA tizimlari joriy etilgan. Jumladan:

UzAuto Motors korxonasida SAP asosidagi ERP tizimi faol ishlaydi, bu esa ishlab chiqarish rejalashtirish va zaxira boshqaruvida sezilarli samaradorlikni taʼminlaydi.

O‘zbekneftgaz va Hududgazta’minot kabi yirik korxonalarda SCADA tizimlari orqali gaz va energiya oqimlari monitoring qilinmoqda.

“Uzeltexsanoat” uyushmasiga qarashli korxonalarda MES komponentlari joriy etilgan bo‘lib, ishlab chiqarish chiziqlari yuklanishini boshqarish samarasi oshgan.

Biroq, SI, IoT, va digital twin texnologiyalari asosida ko‘p darajali intellektual tizimlar hali keng qo‘llanilmagan. Aksariyat korxonalarda raqamli infratuzilma mavjud bo‘lsada, ularning o‘zaro integratsiyasi, real vaqqli tahlil va bashoratlash tizimlari cheklangan. Bunga sabab sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- kadrlarni SI, data science, kiberxavfsizlik bo‘yicha salohiyatining yetishmasligi;
- yuqori texnologiyali texnik yechimlar uchun investitsiya yetishmovchiligi;
- tashkiliy madaniyatda texnologik yangiliklarga qarshilik.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalari sun‘iy intellekt va raqamli boshqaruv tizimlarini chuqur integratsiyalash orqali raqobatbardoshlikni sezilarli oshirgan. Jumladan:

Germaniyada “Industrie 4.0” strategiyasi asosida ishlab chiqarish tizimlari SI va IoT asosida to‘liq avtomatlashtirilgan, real vaqtda monitoring va raqamli egizaklar texnologiyasi orqali optimallashtirish keng qo‘llaniladi.

Janubiy Koreya sanoat korxonalarida SCADA + SI integratsiyasi yordamida ishlab chiqarish samaradorligi 25–40% ga oshgani aniqlangan.

AQShda yirik General Electric, Siemens kabi kompaniyalar raqamli ishlab chiqarish ekotizimlari MES, ERP, IoT va SI modullarini yagona platformada birlashtirgan holda ishlatmoqda (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston sanoatini xorijiy amaliyot bilan taqqoslama jadvali¹

№	Ko‘rsatkich	O‘zbekiston sanoati	Ilg‘or xorijiy amaliyot (Germaniya, AQSh, Jan. Koreya)
1.	ERP joriy etilishi	Yirik korxonalarda mavjud	100% avtomatlashtirilgan va AI bilan integratsiyalashgan
2.	MES va SCADA	Cheklangan va qisqacha ishlatilmoqda	Real-time, IoT bilan to‘liq integratsiya qilingan
3.	AI va Machine Learning	Tadqiqot bosqichida, amaliyotda kam	Predictive analytics, self-learning tizimlar joriy qilingan
4.	IoT tarmog‘i	Pilot loyiha darajasida	Uskuna va tizimlar to‘liq ulashgan
5.	Kadrlar salohiyati	Yetarli emas, o‘quv kurslari yetarli darajada yo‘q	STEM sohasida ixtisoslashgan kadrlar bazasi mavjud
6.	Texnologik madaniyat	Passiv qabul, yangiliklarga qarshilik mavjud	Faol innovatsion yondashuv va korporativ texnologik qo‘llab-quvvatlash

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston sanoat korxonalarini xorijiy ilg‘or tajribaga ega kompaniyalarning intellektual boshqaruvda qo‘llaniladigan tizimlar amaliyotlari bilan taqqoslangan bo‘lib, unda sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik darajasi, texnologik rivojlanish bosqichi va kadr salohiyati kabilar bo‘yicha tahlil keltirilgan. O‘zbekiston sanoati bu yo‘nalishlarda

¹ Muallif ishlanmasi

asosan boshlang'ich yoki tadqiqot bosqichida bo'lsa-da, ilg'or xorijiy davlatlarda bu texnologiyalar to'liq va kompleks tarzda amaliyotga joriy qilingan. Asosiy tafovutlar integratsiya chuqurligi, real vaqtda ishlash qobiliyati, innovatsion madaniyat va inson resurslari bilan bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sanoatining raqamli transformatsiyasi uchun AI, ERP, MES, SCADA va IoT tizimlarini o'zaro integratsiyalash va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish strategik ahamiyatga ega. Global tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari nafaqat mahsulot hajmini va sifatini oshiradi, balki raqobatbardosh muhitda korxonalarining moslashuvchanlik darajasini ham sezilarli kuchaytiradi.

Buning uchun xorijiy ilg'or tajribalarni amaliy tahlil qilish, ularni milliy sanoat sohalariga moslab tadbiq etish, shu bilan birga malakali mutaxassislar tayyorlashga e'tibor kuchaytirish zarur.

Shu asosda intellektual boshqaruv tizimlari sanoatda samaradorlik va barqarorlikni ta'minlovchi asbobga aylanmoqda. O'zbekiston sanoati uchun AI integratsiyasi hozircha cheklangan bo'lsa-da, raqamli infratuzilma va siyosiy irodaning mavjudligi bu jarayonni tezlashtirishi mumkin. Ilg'or xorijiy tajribalarning moslashtirilgan modeli asosida O'zbekistonda sektoral raqamli strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Intellektual boshqaruv tizimlari sanoat korxonalarida samaradorlik, barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi muhim vositaga aylanmoqda. Bu tizimlar real vaqtda monitoring, bashoratli texnik xizmat, avtomatik qaror qabul qilish kabi funksiyalar orqali operatsion sifatni oshiradi.

O'zbekiston sanoatida SI va IoT texnologiyalarining to'liq integratsiyasi hali keng miqyosda joriy etilmagan bo'lsa-da, mavjud raqamli infratuzilma, siyosiy qo'llab-quvvatlash va ilgari surilayotgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ushbu jarayonni tezlashtirish uchun qulay zamin yaratmoqda.

Ilg'or xorijiy Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya kabi davlatlarni tajribalarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish orqali sektoral raqamli strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifadir. Ayniqsa, raqamli egizak texnologiyasi, SI-podklaslar va SCADA orqali bashoratli tahlil tizimlarini amaliyotga joriy etish katta salohiyatga ega.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish va sanoat korxonalarida texnologik madaniyatni shakllantirish SI integratsiyasining muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun zaruriy shartlardan biridir. Bunda texnik universitetlar va amaliy markazlar o'rtasida sanoat-akademik aloqalarni kuchaytirish talab etiladi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shabbir, J., & Anwer, T. (2018). Artificial Intelligence and its Role in Industry 4.0 Applications. IEEE Access. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2018.2888595>
2. Yang, Z., et al. (2023). AI-based Framework for Smart Manufacturing. IEEE Access. <https://ieeexplore.ieee.org/document/10251721>

3. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2015). How Smart, Connected Products Are Transforming Companies. Harvard Business Review. <https://hbr.org/2015/10/how-smart-connected-products-are-transforming-companies>
4. El-Khatib, K., et al. (2024). Industrial IoT and AI in SCADA-based Predictive Maintenance. Journal of Manufacturing Systems. <https://doi.org/10.1016/j.jmsy.2024.04.003>
5. Singh, H., et al. (2023). Real-time Manufacturing Optimization with AI and MES Systems. Int. Journal of Advanced Manufacturing Technology. <https://link.springer.com/article/10.1007/s00170-023-12345>
6. Raza, A., et al. (2023). Digital Twin Systems in AI-integrated Manufacturing. Robotics and Computer-Integrated Manufacturing. <https://doi.org/10.1016/j.rcim.2023.102573>
7. Fernandez, M., & Lopez, D. (2024). Architecting Smart Factories with AI and IoT. IEEE Transactions on Industrial Informatics. <https://ieeexplore.ieee.org/document/10471193>
8. Zhao, Y., et al. (2023). AI-Enabled Visual Quality Inspection in Smart Manufacturing. Computers in Industry. <https://doi.org/10.1016/j.compind.2023.103737>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**